



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

BOLALIK, TASHABBUS VA “AMERIKA BEGUNOHLIGI”: KARSON MAKKALLERS VA YUDORA UELTI NASRIDAGI VAQTINCHALIK AFSONA

Umrzaqov Islomjon Isroilovich

Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqola Karson Makkallers va Yudora Uelti nasrida bolalik va tashabbus tushunchalarining “Amerika begunohligi” mifologemasi bilan bog‘liq holda badiiy talqinini o‘rganadi. XX asr Amerika janubidagi ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz, irqiy ziddiyatlar va patriarxal qadriyatlarining tanazzuli sharoitida “bolalik” kategoriyasi nafaqat psixologik yoki biologik bosqich, balki madaniy konstruktsiya sifatida qayta talqin qilinadi. Makkallersning “Yolg‘izlik – ovchi qalb” (1940) romanidagi Mik Kelli obrazi va Ueltining “Delta to‘yi” (1946), “Yo‘qotilgan janglar” (1970) romanlari hamda “Xotira” (1937) qissasidagi bolalik va o‘smirlik tajribalari tahlil qilinadi. Maqolada bu asarlarda bolaning tashabbusi sifatida musiqa, bilim, ijtimoiy adolatga intilish kabi xislatlar qanday qilib chidamlilik va barqarorlikning ifodasiga aylanishi, ammo shu bilan birga “begunohlik” mifologemasining yemirilishiga olib kelishi ko‘rsatiladi. Tadqiqot struktural-semiotik, qiyosiy va tarixiy metodlarga asoslangan bo‘lib, Makkallers va Uelti nasrini Amerika janubidagi “vaqtinchalik afsona”ni o‘tmishga qaytib bo‘lmaslik va kelajakka ishonchsizlik – kontekstida talqin qiladi.

Kalit so‘zlar: Karson Makkallers, Yudora Uelti, bolalik, tashabbus, Amerika begunohligi, vaqtinchalik afsona, Amerika janubi, modernizm, “Yolg‘izlik – ovchi qalb”, “Delta to‘yi”, “Xotira”.

ДЕТСТВО, ИНИЦИАТИВА И «АМЕРИКАНСКАЯ НЕВИННОСТЬ»: МИФ ВРЕМЕННОСТИ В ПРОЗЕ КАРСОН МАККАЛЛЕРС И ЮДОРЫ УЭЛТИ

Umrzaqov Islomjon Isroilovich

Наманганский государственный институт иностранных языков имени Исахакхана Ибрата, доцент (PhD)

Аннотация

В данной статье исследуется художественная интерпретация понятий детства и инициативы в прозе Carson McCullers и Eudora Welty в контексте мифологемы «американской невинности». В условиях социально-экономического кризиса, расовых противоречий и упадка патриархальных ценностей на американском Юге XX века категория детства переосмысливается не только как психологический или биологический этап, но и как культурный конструкт. Анализируются образ Мик Келли в романе *The Heart Is a Lonely Hunter*, а также опыт детства и юности, представленный в произведениях *Delta Wedding*, *Losing Battles* и *A Memory*. В статье показано, каким образом такие проявления детской инициативы, как стремление к музыке, знаниям и социальной справедливости, становятся выражением устойчивости и жизнеспособности, но одновременно приводят к разрушению мифологемы «невинности». Исследование основано на структурно-семиотическом, сравнительном и историческом методах и интерпретирует прозу Маккаллерс и Уэлти в контексте «мифа временности» американского Юга, связанного с невозможностью возвращения в прошлое и утратой уверенности в будущем.

Ключевые слова: Карсон Маккаллерс, Юдора Уэлти, детство, инициатива, американская невинность, миф временности, американский Юг, модернизм, «Сердце — одинокий охотник», «Свадьба в дельте», «Воспоминание».

CHILDHOOD, INITIATIVE, AND “AMERICAN INNOCENCE”: THE MYTH OF TEMPORALITY IN THE PROSE OF CARSON McCULLERS AND EUDORA WELTY

Umrzaqov Islomjon Isroilovich

Namangan State Institute of Foreign Languages named after Ishaqkhan Ibrat, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article examines the artistic representation of childhood and initiative in the prose of Carson McCullers and Eudora Welty in relation to the mythologeme of “American innocence.” Against the background of socio-economic crisis, racial tensions, and the decline of patriarchal values in the twentieth-century American South, childhood is reinterpreted not merely as a psychological or biological stage but as a cultural construct. The study analyzes the character of Mick Kelly in *The Heart Is a Lonely Hunter*, as

well as childhood and adolescent experiences depicted in *Delta Wedding*, *Losing Battles*, and *A Memory*. The article demonstrates how children's initiatives—such as aspirations toward music, knowledge, and social justice—become expressions of resilience and endurance, while simultaneously contributing to the erosion of the mythologeme of innocence. Based on structural-semiotic, comparative, and historical methods, the study interprets the prose of McCullers and Welty within the framework of the Southern “myth of temporality,” characterized by the impossibility of returning to the past and a loss of confidence in the future.

Keywords: Carson McCullers, Eudora Welty, childhood, initiative, American innocence, myth of temporality, American South, modernism, *The Heart Is a Lonely Hunter*, *Delta Wedding*, *A Memory*

“Amerika begunohligi” tushunchasi Yangi Dunyoning Eski Dunyoning korrupsiyasidan xoli, “boshlanish” va “tozalik” fazilatlariga asoslangan milliy o'zlikni ifodalovchi mifologema Amerika adabiyotining eng mustahkam va shu bilan birga eng ziddiyatli tuzilmalaridan biridir. Ushbu mifologema, bir tomondan, Amerika eksperimentining optimistik asosini tashkil etgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, qullik, tubjoy aholining qirg'in qilinishi va imperialistik ekspansiyaning og'ir merosini yashirib kelgan. XX asrga kelib, ayniqsa Birinchi jahon urushi, Buyuk Depressiya va janubiy shtatlarda Jim Krou qonunlari hukmronligi sharoitida ushbu mifologema chuqur inqirozga yuz tutdi.

Aynan shu tarixiy nuqtada Karson Makkallers (1917-1967) va Yudora Uelti (1909-2001) o'z asarlari bilan Amerika adabiyotiga kirib keldi. Ikkala yozuvchi ham janubdan chiqqan, ikkalasi ham modernistik estetikaning eng ilg'or shakllarini o'zlashtirgan va ikkalasi ham o'z asarlarida bolalik tajribasini markaziy badiiy kategoriyaga aylantirgan. Makkallers 23 yoshida nashr etgan ilk romani “Yolg'izlik – ovchi qalb” (*The Heart Is a Lonely Hunter*, 1940) bilan Amerika adabiyotida birdaniga yirik hodisaga aylandi[1]. Uelti esa o'zining “Delta to'yi” (*Delta Wedding*, 1946), “Yo'qotilgan janglar” (*Losing Battles*, 1970) romanlari va ko'plab qissalari bilan janub adabiyotining klassigiga aylandi[2].

Makkallers va Uelti nasrida bolalik nafaqat syujet harakatining boshlang'ich nuqtasi yoki muhim tarkibiy qism, balki voqelikni idrok etishning o'ziga xos usuli, “begunohlik” mifologemasini sinovdan o'tkazuvchi, uning nomutanosibliklari va ziddiyatlarini ochib beruvchi metodologik vositadir. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Makkallers va Uelti asarlarida bolalik va tashabbusning badiiy talqinini “Amerika begunohligi” milliy mifologemasi bilan bog'liq holda tahlil qilish. Maqolada bolalik ongining tasviri qanday qilib “vaqtinchalik afsona” ekanligi o'tmishga qaytib bo'lmaslik, kelajak esa noaniq va xavfli bo'lgan bir davrda barqarorlik izlashning estetik strategiyasiga aylanishini ochib berish maqsad qilingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Karson Makkallers va Yudora Uelti ijodi adabiyotshunoslikda nisbatan keng o'rganilgan bo'lsa-da, ularning asarlaridagi bolalik va “Amerika begunohligi” aloqasi maxsus tadqiqot predmeti sifatida kamdan-kam tadqiq qilingan.

Makkallers ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlarda “Yolg'izlik – ovchi qalb” romani asosan “yolg'izlik”, “muloqotning imkonsizligi” va “janub gotikasi” janri doirasida tahlil qilingan. Biroq romanning markaziy personajlaridan biri 12 yoshli Mik Kelli obrazi va uning musiqaga bo'lgan tashabbusi yetarlicha talqin qilinmagan. Mikning o'g'il bolalarga xos qiyofasi, uning tungi sayohatlari, klassik musiqaga bo'lgan ishtiyoqi va pianino sotib olish orzusi “yosh Amerika” ning ramzi sifatida talqin qilinishi mumkin. Mikning “bu tunlar sirli edi va butun yoz davomida ular eng muhim vaqt edi”[3] degan fikri bolalik orzularining kattalar dunyosi qonunlariga qaramay mavjud bo'lish imkoniyatini ifodalaydi.

Uelti Ijodiga oid tadqiqotlarda esa, xususan, Valeri N. Freyzerning “Yudora Ueltining “Delta to'yi”, “Yo'qotilgan janglar” va “Optimistning qizi romanlarida xotira tadqiqi” (*Memory in three novels by Eudora Welty: a study of Delta Wedding, Losing Battles, and The Optimist's Daughter*, 1992) nomli tadqiqoti muhim o'rin tutadi[4]. Freyzer Uelti romanlarida jamoaviy va individual xotira o'rtasidagi ziddiyatni o'rganib, “hikoya qiluvchi jamoa o'zining umumiy o'tmishini shakllantirib, vaqt o'tishi bilan o'zgaraslik va abadiylik illyuziyasini yaratadi” degan xulosaga keladi[5]. Ushbu kuzatuv “vaqtinchalik afsona” tushunchasi bilan bevosita bog'lanadi, ya'ni Uelti personajlari o'zlarining barqarorlikka bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun o'tmishni qayta hikoya qiladilar.

Uilyam P. Myurreyning “Xavfli begunohlik: Oq tanli erkaklar, ommaviy madaniyat va janublik begonaning jozibadorligi” (*Dangerous Innocence: White Men, Mass Culture, and the Southern Outsider's Appeal*, 2024) nomli zamonaviy tadqiqoti esa “begunohlik” mifologemasining siyosiy jihatlari ochib beradi[6]. Myurreyning ta'kidlashicha, oq tanli janubiy amerikaliklarning “autsayder” sifatida o'zini tasavvur qilishi bu “o'ziga xoslik cheksiz shakllanuvchan va jamoaviy meroslarga bog'liq emas” degan

fantaziyadir. Myurreyning fikricha, Uelti asarlari oq tanli o'quvchilarga mintaqaning ayb hissidan ajralib turish imkonini beruvchi falsafiy linza vazifasini o'taydi[7]. Biroq Myurrey tahlilida Makkallers asarlari qamrab olinmagan, bu esa hozirgi tadqiqotning dolzarbligini oshiradi.

Sally Volfning "Qora atirgul: Eudora Ueltining qissa va romanlarida sevgi" (A Dark Rose: Love in Eudora Welty's Stories and Novels, 2015) asarida Uelti qissalarining tahliliga alohida e'tibor qaratilgan. Volf "Xotira" ("A Memory", 1937) qissasini "tush ko'rish va hikoya qilish" nuqtai nazaridan tahlil qilib, unda bolalik ongining "atirgulga o'xshab muddatidan oldin gullashi" obrazini ochib beradi[8].

Shu bilan birga, Makkallers va Uelti asarlarini qiyosiy tahlil qilgan tadqiqotlar kam. Mazkur maqola aynan shu ikki yozuvchining bolalik va begunohlik mifologemasiga munosabatini tizimli va qiyosiy ravishda o'rganishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda uchta asosiy metod qo'llaniladi: qiyosiy-tipologik tahlil, struktural-semiotik va tarixiy metodlar.

Qiyosiy-tipologik metod Makkallers va Uelti asarlaridagi bolalik va tashabbusning badiiy talqinlarini solishtirish, ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Ikkala yozuvchi ham janub gotikasi an'analaridan kelib chiqqan, modernistik texnikalarni qo'llagan va bolalik ongini markazlashtirgan bo'lsa-da, ularning "begunohlik"ka munosabati turlicha. Masalan, Makkallersda u tragik va yemiriluvchi bo'lsa, Ueltida ambivalent – qadrlanuvchi, shu bilan birga cheklangan.

Struktural-semiotik metod asarlardagi belgilar tizimini (masalan, Mik Kelli uchun musiqa, qahramonlar uchun Singerning sukunati, Uelti asarlarida xotira va oilaviy rivoyatlar) tahlil qiladi. Xususan, quyidagi tahlil birliklari tanlangan:

Makkallersning "Yolg'izlik – ovchi qalb" romanidagi Mik Kelli obrazining evolyutsiyasi (o'smirlik orzularidan "Vulvort" do'konidagi ishchilik hayotiga);

Makkallersning "Laqma" (Sucker) qissasidagi aka-uka munosabatlari va tashabbusning yo'qolishi;

Ueltining "Xotira" ("A Memory") qissasidagi bolalik qarashlari va ularning kattalar ongi tomonidan "ramkalanib" hikoya qilinishi;

Ueltining "Delta to'yi" romanidagi bola Laura obrazining oilaviy xotira tizimidagi o'rni;

"Yo'qotilgan janglar" romanidagi bolalar va kattalar o'rtasidagi avlodlar ziddiyati.

Yangi tarixiy metod (New Historicism) asarlarni o'z davrining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy kontekstiga joylashtiradi. Makkallersning 1940-yildagi romani Buyuk Depressiya (1929-1939) va Ikkinchi jahon urushi (1939-1945) oralig'ida yozilgan. Jorjia shtatidagi xayoliy "mill shaharchasi" real tarixiy kontekst – sanoatlashtirish, ishchilar sinfining qashshoqlashuvi, irqiy ziddiyatlarni aks ettiradi. Uelti asarlari esa, ayniqsa "Delta to'yi" va "Yo'qotilgan janglar", Missisipi Deltasidagi plantatsiya jamiyatining o'zgarishlarini, an'anaviy qadriyatlarining modernizatsiya bosimi ostida parchalanishini ifodalaydi .

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

"Yolg'izlik – ovchi qalb"da Mik Kelli: tashabbus va uning yemirilishi

Karson Makkallersning "Yolg'izlik – ovchi qalb" romani 1930-yillarda Georgia shtatidagi kichik bir shaharchada bo'lib o'tadi. Romanning eng yorqin va eng ta'sirli personajlaridan biri – 12 yoshli Mik Kelli. Mik – o'g'il bolalarga xos qiyofadagi qiz, erkaklar kiyimida yuradi, musiqa uning eng sevimli mashg'ulotidir. U tungi ko'chalarda yolg'iz sayr qiladi, qo'shni uylarning radiolari orqali klassik musiqani tinglaydi, pianino sotib olishni orzu qiladi.

Mikning tashabbusi – uning musiqaga bo'lgan ishtiyoqi – romandagi eng kuchli harakat qobiliyati namunalaridan biridir. U passiv qurbon emas, u faol ravishda o'z istaklari yo'lida harakat qiladi. Quyidagi parcha bu faollikni yaqqol ko'rsatadi:

"Bu tunlar sirli edi va butun yoz davomida ular eng muhim vaqt edi. Qorong'ida u yolg'iz o'zi yurar va bu qorong'ulikda u shaharda yagona odamdek his qilardi. Deyarli har bir ko'cha unga tungi vaqtda uyining mahallasi kabi tanish bo'lib qoldi. Ba'zi bolalar qorong'uda notanish joylardan o'tishdan qo'rqishardi, lekin u qo'rqmasdi. Aksariyat qizlar ahmoq edi... Kechlar ajoyib edi, va uning bunday qo'rquvlar haqida o'ylashga ham vaqti yo'q edi..." [9].

Ushbu parcha bir necha jihatdan muhimdir. Birinchidan, Mikning jasorati va mustaqilligi an'anaviy gender rollariga qarshi chiqadi. U "qizlar ahmoq" deb hisoblaydi – bu o'ziga xos feministik pozitsiyadir. Ikkinchidan, uning tashabbusi – musiqa va go'zallikka intilish – moddiy qashshoqlikka qaramay mavjud bo'ladi. Uchinchidan, va eng muhimi, bu orzular va tashabbusning vaqtinchalik tabiatini "butun yoz davomida" – yoz tugashi bilan bolalik ham tugashi ta'kidlanadi.

Romanning soʻnggi qismida Mikning taqdiri bu vaqtinchalik afsonaning qanchalik qisqa muddatli ekanligini koʻrsatadi. U maktabni tashlab, oilasini boqish uchun Vulvort doʻkonida ishga kirishga majbur boʻladi. “U oʻzini aldangan his qildi, chunki har kuni ishdan keyin shunchalik charchab qolardiki, musiqani oʻylashga vaqti qolmasdi”[10]. Mikning tashabbusi – uning faol orzulari – kattalar dunyosining iqtisodiy zoʻravonligi tomonidan yemiriladi.

Mik obrazi “Amerika begunohligi” mifologemasining yorqin inkor etilishidir. Amerika mifi boʻyicha, har qanday bola (ayniqsa, iqtidorli va mehnatsevar) oʻz qobiliyatlari bilan yuqori pogʻonalarga koʻtarilishi mumkin. Mik haqiqatan ham iqtidorli (u murakkab simfoniyalarni eslab qoladi, hatto hech qachon pianinoga ega boʻlmagan holda musiqa yozadi) va mehnatsevar. Biroq uning jinsi (qiz), ijtimoiy tabaqasi (ishchilar oilasi) va geografik joylashuvi (janub) bu “imkoniyatlar tengligi” mifini bekor qiladi. U “muvaqqafiyatga” erishmaydi, faqatgina omon qoladi, xolos.

Makkallersning “Suker” (Sucker, 1940) va Ueltining “Xotira” (“A Memory”, 1937) qissalari “ramkali hikoya” shaklida yozilgan boʻlib, ikkalasida ham katta yoshli odamlar oʻz bolaligini eslaydi. Ushbu uslubiy tanlov – oʻtmishga qarash va uni hikoya qilish – “vaqtinchalik afsona” ning asosiy tarkibiy elementidir, yaʼni oʻtmishdagi voqea hozirgi vaqtda qayta talqin qilinadi, “tuzatiladi” va maʼno bilan toʻldiriladi.

Makkallersning “Suker” (Sucker, 1940) qissasida katta yoshli Pit oʻzining oʻsmirlik davridagi tajribasini ukasi Sucker (taxallus) bilan munosabatlarini va birinchi muhabbatini hikoya qiladi. Pit oʻzining bosh qahramon Maybell Uottsga boʻlgan “muhabbat”ini tasvirlaydi, bu aslida bola ongining fantaziyasidan boshqa narsa emas. Maybell unga eʼtibor bermaydi, ammo Pit oʻz fantaziyalarida ularning munosabatlarini idealizatsiya qiladi.

Qissaning asosiy ziddiyati Pitning fantaziyasi (tush) va voqelik (haqiqat) oʻrtasida yuzaga keladi. Maybell nihoyat unga eʼtibor qaratganda, Pit ularning munosabati “real” deb oʻylaydi. Maybell boshqa yigit bilan ketgach, Pitning butun dunyosi qulaydi. U oʻzining gʻazab va umidsizligini ukasi Sukerga toʻkib-sochadi, uni jismonan va hissiy jihatdan yaralaydi.

Makkallers bu yerdan xulosa chiqaradi: “Tush haqiqat bilan toʻqnashganda, u barcha munosabatlarni yoʻq qiladi”[11]. Pitning “tashabbusi” – Maybellga boʻlgan intilishi – u yaratgan fantaziya asosida qurilgan edi. Haqiqat bu fantaziyani yoʻq qilganda, Pitda faqat boʻshliq va gʻazab qoladi.

Ueltining “Xotira” (“A Memory”) qissasi shunga oʻxshash strukturani, ammo mutlaqo boshqa natija bilan taqdim etadi. Qissada qiz oʻzining bolalikdagi “ilk muhabbat”ini eslaydi. U oʻzining “tush” dunyosida yashaydi, u yerda hamma narsa goʻzal va maʼnoli. Bir kuni dengiz qirgʻogʻida u bir guruh “qoʻpol va xunuk” odamlarni koʻradi. Ularning xatti-harakatlari, ovqat yeyishlari, oʻzaro gaplashishlari, kulishlari uning estetik sezgiriligini jirkantiradi.

Ueltining qahramoni Makkallersnikidan farqli ravishda oʻz fantaziyasini toʻliq tark etmaydi. U voqelikni koʻradi, ammo bu uning ichki dunyosini butunlay yoʻq qilmaydi. Wolf taʼkidlaganidek, “Xotira”da “tush koʻrish va hikoya qilish” bir-biriga qarama-qarshi qoʻyilgan, ammo ular oʻrtasida gʻolib yoʻq, qahramon ikkalasining oʻrtasida qoladi[12].

Yuqoridagi tahlillar shuni koʻrsatadiki, Makkallers va Ueltining tasvir uslubidagi farq muhimdir. Makkallers uchun “tush” va “haqiqat” oʻrtasidagi toʻqnashuv halokatli, barcha munosabatlarni, hatto qimmatli boʻlganlarini (Sucker bilan munosabat) ham yoʻq qiladi. Uelti uchun esa bu toʻqnashuv oʻtkir, ammo halokatli emas, qahramon oʻzining “tush” dunyosini saqlab qola oladi, garchi unda yoriq paydo boʻlsa ham.

Ueltining “Delta toʻyi” (1946) romani Missisipi Deltasidagi Feyrchayldlar oilasining hayotini tasvirlaydi. Roman bolalik ongini ifodalashning eng murakkab usullaridan birini qoʻllaydi – asar asosan 9-10 yoshlar atrofidagi Laura va uning amakivachchalari nuqtai nazaridan hikoya qilinadi.

Valeri Freyzerning taʼkidlashicha, “Delta toʻyi” asarida Feyrchayldlar oilasi oʻzining umumiy xotirasini yaʼni, oʻlgan aka Grover haqidagi hikoyalar, oilaviy anʼanalar, birgalikda yashagan voqealarni doimiy ravishda qayta hikoya qilib, “vaqt oʻtishiga qaramay oʻzgarmaslik” illyuziyasini yaratadi[13].

Bolalar bu jamoaviy xotira tizimida alohida oʻrin tutadi. Ular hali “begunoh”, ular oilaning “qora” sirlari (irqiy ziddiyatlar, moliyaviy muammolar, nikohdagi nosozliklar)ni toʻliq tushunmaydilar. Aynan shu “bilmaslik” ularga oilaning barqarorlik illyuziyasini saqlash imkonini beradi. Biroq Freyzer taʼkidlaganidek, Jamoaviy xotiraga boʻysunganlar xavfsizlik va barqarorlikka ega boʻladi, lekin individual oʻzlik va erkinlikdan mahrum boʻladi.

“Yoʻqotilgan janglar” (1970) romanida Uelti bu ziddiyatni yanada chuqurlashtiradi. Roman 1970-yillarning boshlarida, aynan bir kunda boʻlib oʻtadi, ammo butun hikoya oʻtmishga, 1920-30-

yillarga yo'naltirilgan. Romandagi bolalar o'zlarining shaxsiy tashabbuslarini kollektiv xotira va an'analar bosimi ostida yo'qotadilar. "Yo'qotilgan janglar" sarlavhasining o'zi bu "janglar" allaqachon yo'qotilgan, va faqat ularni eslash qoladi degan ma'noni anglatadi.

Uelti dunyosida "Amerika begunohligi" mifologemasi ambivalent tarzda talqin qilinadi. Bir tomondan, bolalik begunohligi qadrlanadi, u oilani birga ushlab turuvchi kuch. Ikkinchi tomondan, bu "begunohlik" bilmaslik, ko'rmaslik va eshitmaslikka asoslangan. Demak, begunohlik – bu insonni o'z ildizlari va tarixiy mas'uliyatidan uzib qo'yuvchi xayoliy tasavvurdan boshqa narsa emas [14]. Fairchilds bolalari "begonalar" emas, aksincha ular ichkarida, oila markazida, ammo ularning "ichkaridaligi" ularni voqelikning qorong'u tomonlaridan himoya qiladi.

Makkallers va Uelti nasrini solishtirganda, bolalik va tashabbusning ikki xil badiiy modeli ajralib turadi:

Jihat	Karson Makkallers	Yudora Uelti
Bolalik tasviri	Realistik, ko'pincha og'riqli, qurbonlikka moyil	Romantik-qayg'uli, himoyalangan, ammo cheklangan
Tashabbus	Faol, ammo deyarli har doim yemiriladi (Mik, Pit)	Mavjud, ammo kollektiv xotira bosimi bilan chegaralanadi
"Begunohlik"ka munosabat	Tanqidiy – begunohlik himoyasizlik va qurbonlikka olib keladi	Ambivalent – begunohlik qadrli, ammo bu bilmaslikka asoslangan
Hikoya tuzilishi	Chiziqli, ammo to'satdan uziladi ("tush" va "haqiqat" to'qnashuvi)	Aylana shaklidagi, "ramkali", o'tmishga qaytib boradi
"Vaqtinchalik afsona"	Kelajak yo'q – vaqt yemirilish va yo'qotish keltiradi	O'tmish saqlanadi, lekin kelajak noaniq
Mishel Fuko qarashlari	"Bilish hokimiyatdir" – bilmaslik (bolalik) kuchsizlikdir	"Bilmaslik himoyadir" – bilish mas'uliyat va og'riq keltiradi

Makkallersning modeli "tragik modernizm" deb tavsiflanishi mumkin. Uning dunyosida bolaning tashabbusi va orzulari kattalar dunyosining iqtisodiy va ijtimoiy zo'rvonligi tomonidan yo'q qilinadi. Mik Kelli musiqa orzulari bilan yonadi, lekin oxir-oqibat Vulvort do'konida ishlaydi. "Suker"dagi Pit o'zining fantaziyalarining halokatli kuchini boshdan kechiradi. Makkallers dunyosida "Amerika begunohligi" mavjud emas, balki Amerika qurbonligi mavjud.

Ueltining modeli esa "nostalgik modernizm" yoki "konservativ modernizm" deb tavsiflanishi mumkin. Uning dunyosida bolalik begunohligi qadrlanadi va himoya qilinadi, ammo bu himoya narxi individual erkinlik va haqiqatni bilishdan iboratdir. Feyrchayldlar bolalari o'z oilalarining qorong'u sirlarini bilmaydilar, va bu "bilmaslik" ularga barqarorlik hissini beradi. Biroq bu barqarorlik illyuziyadir – "vaqtinchalik afsona"dir. Vaqt o'tadi, bolalar o'sadi, va afsona parchalanadi.

Ikkala modelda ham "vaqt" markaziy kategoriya hisoblanadi. Makkallersda vaqt chiziqli va yemiruvchi, u bolalikni, orzularni va tashabbusni yo'q qiladi. Ueltida vaqt aylana shaklidagi va konservativ: u o'tmishni saqlaydi, ammo uni muzlatib qo'yadi, o'zgarishni imkonsiz qiladi. Ikkala holatda ham "Amerika orzusi", ya'ni o'zgarish, taraqqiyot, yaxshilanishga intilish kabi jarayonlar ishlamaydi. Makkallersda bu mumkin emas; Ueltida bu juda qimmatga tushadi.

XULOSA

Karson Makkallers va Yudora Uelti nasrida bolalik va tashabbus XX asr Amerika janubidagi milliy inqirozning badiiy modeli sifatida namoyon bo'ladi.

Bolalikning ikki modeli: Makkallersda bolalik – qurbonlik va yemirilish joyi, Ueltida esa

himoyalangan, ammo cheklangan makon. Ikkala model ham “Amerika begunohligi” mifologemasining tanqidiy qayta ko‘rib chiqilishini ifodalaydi.

Makkallers personajlarining tashabbusi (Mikning musiqaga, Pitning muhabbatga intilishi) faol va kuchli, ammo deyarli har doim kattalar dunyosi tomonidan yemiriladi. Uelti personajlarining tashabbusi esa kollektiv xotira va oilaviy an‘analar bosimi bilan chegaralanadi.

Ikkala yozuvchi asarlarida markaziy kategoriya – vaqt bilan bog‘liq “afsona” – o‘tmishga qaytib bo‘lmaslik va kelajak noaniqligining badiiy ifodasidir. Makkallersda vaqt chiziqli va yemiruvchi, Ueltida aylana shaklidagi va konservativ.

Makkallers va Uelti o‘z asarlarida “Amerika orzusi”ning asosiy postulatlarini imkoniyatlar tengligi, mehnat va irodaning muvaffaqiyatga olib kelishi, bolalik “toza varaq” ekanligini rad etadilar. Janub kontekstida bu mifologema yanada ziddiyatli bo‘lib chiqadi, ya’ni qullik merosi, irqiy ziddiyatlar, iqtisodiy qashshoqlik va patriarxal qadriyatlar “begunohlik”ni imkonsiz yoki faqat “bilmaslik” orqali mumkin qiladi.

Makkallers va Uelti asarlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. “Bolalikning yo‘qolishi”, “tashabbus va uning to‘siqlari”, “milliy begunohlik mifologemasi” kabi mavzular global miqyosdagi tengsizlik, migratsiya, iqlim inqirozi va urushlar sharoitida yangicha ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. McCullers C. *The Heart Is a Lonely Hunter*. – New York : Houghton Mifflin, 1940. – P. 120.
2. Welty E. *Delta Wedding*. – New York : Harcourt, Brace & Co., 1946. – P. 97.
3. Murray W.P. *Dangerous Innocence: White Men, Mass Culture, and the Southern Outsider’s Appeal, 1960–2020*. – Baton Rouge : Louisiana State University Press, 2024. – P. 10–15.
4. Welty E. *Delta Wedding*. – New York : Harcourt, Brace & Co., 1946. – P. 14.
5. Welty E. *Delta Wedding*. – New York : Harcourt, Brace & Co., 1946. – P. 158.
6. Murray W.P. *Dangerous Innocence: White Men, Mass Culture, and the Southern Outsider’s Appeal, 1960–2020*. – Baton Rouge : Louisiana State University Press, 2024. – P. 8.
7. Murray W.P. *Dangerous Innocence: White Men, Mass Culture, and the Southern Outsider’s Appeal, 1960–2020*. – Baton Rouge : Louisiana State University Press, 2024. – P. 10.
8. Fraser V.N. *Memory in Three Novels by Eudora Welty: A Study of Delta Wedding, Losing Battles, and The Optimist’s Daughter*. – Waco : Baylor University, 1992. – P. 35.
9. McCullers C. *The Heart Is a Lonely Hunter*. – New York : Houghton Mifflin, 1940. – P. 107.
10. McCullers C. *The Heart Is a Lonely Hunter*. – New York : Houghton Mifflin, 1940. – P. 340–345.
11. McCullers C. *Sucker // The Ballad of the Sad Café and Other Stories*. – New York : Houghton Mifflin, 1951. – P. 140–145.
12. Welty E. *A Memory // The Collected Stories of Eudora Welty*. – New York : Harcourt Brace Jovanovich, 1980. – P. 80–82.
13. Welty E. *Delta Wedding*. – New York : Harcourt, Brace & Co., 1946. – 247 p. – P. 156–167.
14. Murray W.P. *Dangerous Innocence: White Men, Mass Culture, and the Southern Outsider’s Appeal, 1960–2020*. – Baton Rouge : Louisiana State University Press, 2024. – P. 8.